KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 9 (539) 2025-YIL, 8-MART

YURTIMNING BAXTLI AYOLLARIDAN BIRIMAN



Sochingizni oralabdi qirovlar,
Ne qilay "nokerak" uzrlarimni,
Yuzingizda ajin, tag'in bu dog'lar -
Mening yetkizgan ozorlarimmi?

Diydoringiz qo'msayapman xo'p,
Sog'ligingiz joyidami Ona?
Qayg'urasiz, ranjitsam-da ko'p -
Men hammadan "yaxshiman-a"..?

Siz uchun
Bardoshman,
Sabrman,
Kuchman,
Yillarga yoshingiz yo'latmam bir kun,
Uzoqroq, dardsiz, baxtli yashang, Men -
"Dunyoni to'xtatib turishim mumkin"!

Mohinurning qalbi she'riyat. She'riy misralar go'yo uning qalbidan to'kiladi. Shu bois, uning yozganlarida o'quvchi ko'ngliga "jiz" etib tegadigan nimadir bor. U dunyoni, borliqni o'zgacha tasavvur etadi. Ijodi orqali boshqalarni ana shu, o'z tasavvurlari dunyosiga taklif etadi.

Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida Prezidentimiz farmoni asosida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan qizlar orasida andijonlik ijodkor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti adabiyot nazariyasi mutaxassisligi tayanch doktoranti Mohinur Sotvoldiyeva ham bor.

Davlatimiz rahbarining kuni kecha imzolagan farmoni bilan joriy yilda adabiyot yo'nalishi bo'yicha Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'lgan Mohinur Sotvoldiyeva yurtimizning izlanuvchan, tashabbuskor, fidoyi va ijodkor yoshlaridan biridir. Uning "Bir g'uncha ochilguncha" nomli she'riy to'plami chop etilgan. 2022-yil O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining an'anaviy "Zomin seminari" Badiiy tarjima yo'nalishida mintaqaviy hamda respublika bosqichida faol ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlangan. Yurtimiz iqtidorli yoshlarining "Eng gullagan yoshlik chog'imda" deb nomlangan Yoshlar bayoziga uning tarjima hikoyalari kiritilgan.

Mohinur she'riyat yo'nalishida ijod qilish bilan birga, badiiy publitsistika, badiiy tarjima sohalarida ham yaxshigina mutaxassis bo'lib shakllandi, qator ilmiy-tadqiqotlar olib bordi. Qolaversa, ilm-fan sirlarini o'rganish, jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etib keladi.

Jamoat ishlarida yetakchi, ijodkor, jurnalist, tarjimon, volontyor va koordinator sifatida ko'plab loyihalarni amalga oshirishda faol qatnashdi. Jumladan, u turli yillarda Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi qoshida tashkil etilgan "O'zbekiston yetakchi ayollar muloqoti" platformasining media yo'nalishi a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi qoshida tashkil etilgan "Qizlarjon" klubining "Sog'lom turmush tarzini targ'ib etish" yo'nalishi koordinatori sifatida samarali faoliyat yuritib keldi.

Mohinur xalqaro loyihalarda, turli davlatlarda o'tkazilgan yosh tilshunos, tarjimon va adabiyotshunoslarning ilmiy anjumanlari, forumlarida ham faol ishtirok etib keladi. O'zining ijodi, izlanishlari bilan milliy qadriyatlarimizni xalqaro miqyosda targ'ib etish borasida ham e'tiborga molik ishlarni amalga oshirgan.

Xalqaro hamkorlik doirasida uning "Lullabies" ("Alla") deb nomlangan o'quv qo'llanmasi Germaniya davlatining "Lap Lambert" nashriyoti tomonidan nemis, ingliz, rus, fransuz, italyan, indonez va portugal tillariga tarjima qilinib, chop etilgan.

Hozirda u filologiya fanlari doktori, professor Gulnoz Xalliyeva rahbarligida "Jahon adabiyotida ota obrazi poetikasi" mavzusida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Mohinurning baxtli oilaning bekasi, shirindan-shakar ikki farzandning onasi bo'lishiga qaramay, ijod, ilmiy izlanishlarni davom ettirayotganligi alohida e'tirofga loyiq.

- Men yurtimning eng baxtli ayollaridan biriman, - deydi Mohinur Sotvoldiyeva. -Kelajakda o'z ijodim, mehnatim bilan ona Vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan fidoyi inson bo'lishga va'da beraman.

Mohinurning dilidagi samimiy niyatlari albatta, ijobat bo'ladi. Chunki unda g'ayrat, shijoat, intilish bor, qalbida esa ona Vatanga muhabbat, sadoqat, ertangi kunga ishonch va umid tuyg'ulari jo'sh urmoqda.

Faxriddin UBAYDULLAYEV,
Zuhriddin UMRZOQOV (foto),
O'zA muxbirlari



FAXRIY JURNALIST AYOLLARLAR SHARAFLANDI

O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi Andijon viloyati bo'limi tomonidan 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan "Muqaddas ayol!" tadbiri tashkil etildi.



Tadbirni Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyati bo'limi raisi Maxpura Artiqova ochib berdi. O'zNNTMA Andijon hududiy bo'linmasi rahbari Sherzodbek Valiyev, O'zbekiston Milliy axborot agentligini Andijon viloyat guruhi rahbari Faxriddin Ibaydullayev, "Xalq so'zi" gazetasi muxbiri Saminjon Xusanov ayol sha'ni, qadr-qimmati haqida so'z yuritib, ishtirokchilarni bayram bilan qutladilar.





"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" Mukarramxon Xolmatova, faxriy jurnalistlar Shefiye Imankulova, Ra'noxon Jumaniyozova va Zamiraxon Ro'ziyevalar ijodkor ayol faoliyatidagi qiyinchiliklar, shu bilan birga e'zoz va ehtiromlar xususida fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Bayram tadbiri faxriy jurnalistlar o'rtasidagi samimiy muloqot, she'riy lahzalar bilan yanada ko'tarinki ruh oldi.

Tadbir yakunida ayol jurnalistlar taqdirlandi, esdalik sovg'alar topshirildi.

M.MAMATQULOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi
Andijon viloyat bo'limi mutaxassisi.

PROFILAKTIK TUSHUNTIRISH ISHLARI OLIB BORILMOQDA

Andijon viloyati IIB PPX va JTSB karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi hamda qator mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda viloyatning shahar-tumanlarida faoliyat ko'rsatayotgan oziq-ovqat bozorlari va ularning shoxobchalarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligi hamda veterinariya-sanitariya qoidalari normalariga amal qilinishini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.





Xususan, viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda boshqa mutasaddi idora xodimlari bilan hamkorlikda keng qamrovli profilaktik tushuntirish ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Asaka tumani faoliyat yuritayotgan "Ulgurji" MCHJga qarashli dehqon bozori hamda hayvonot bozorida ham aholi dasturxoniga sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berilishini ta'minlash va hayvonlar o'rtasida insonlarga yuqishi mumkin bo'lgan yuqumli kasalliklarni oldini olish, oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish, epizootik va epidemik vaziyatni barqarorligini ta'minlash asosiy e'tiborini go'sht va go'sht, sut va sut mahsulotlariga qaratish maqsadida keng qamrovli profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

O'tkazilgan nazorat tadbiri davomida tadbirkorlar tomonidan fuqarolarga sifatsiz va iste'molga yaroqsiz mahsulotlarni sotmaslik, fuqarolarga sifatli xizmat ko'rsatish to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

Andijon viloyatining barcha shahar-tumanlarida joylashgan bozorlarda sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini fuqarolarga sotilishini oldi olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar davom ettirilmoqda.

Sardorbek SHERMATOV,
Andijon viloyati IIB JXX JTSB
Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi
xodimi safdor.

«NOTARIUS MASLAHATI» SAHIFASI

AVTOMOTOTRANSPORT VOSITALARI BILAN BOG‘LIQ BITIMLARNI RASMIYLASHTIRISHDA UNDIRILADIGAN DAVLAT BOJI MIQDORINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI QANDAY?

Har bir notarial harakat uchun qonunda belgilangan tartibda davlat boji undiriladi. 2022-yilgacha notariuslarda davlat boji stavkalari juda ko‘p toifalarga ajratilgan edi. Shu sababli ularni hisoblashda noqulayliklar tug‘idirar edi. Xususan, avtomototransport vositalari bilan bog‘liq shartnomalarni tasdiqlash uchun davlat boji 12 ta, ko‘chmas mulk, garov, ipoteka va lizing shartnomalari bo‘yicha 6 ta toifaga bo‘lingan edi. Davlat boji stavkalarini hisoblashda uy-joyning maydoniga, avtomototransport vositalarining dvigatel quvvati va ishlab chiqarilgan yiliga qaralar edi.

Shu bois davlatimiz rahbari notarial harakatlar tizimini soddalashtirish va aholiga qulayliklarni oshirish vazifasini qo‘ygan edi. Shunga asosan, "Davlat boji to‘g‘risida"gi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Unga ko‘ra, notarial harakatlar uchun undiriladigan davlat bojlarining stavkalari optimallashtirildi.

Yuqorida aytib o‘tgan toifalar qisqartirilib, stavkalar birxillashtirildi, ayrimlari kamaytirildi.

Jumladan, avtomototransportni boshqa shaxsga o‘tkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji quyidagi miqdorlarda undiriladi:

avtomototransport vositalari uchun - BHMning 3 baravari (ilgari transport vositasi dvigatelining quvvati, ya'ni ot kuchiga va ishlab chiqarilgan sanasiga qarab BHMning 2 baravaridan 10 baravarigacha);

bitta mototransport, motoaravacha, motoqayiq uchun - BHMning 25 foizi (ilgari ishlab chiqarilgan sanasiga qarab BHMning 10 foizidan 50 foizigacha).

Avtomototransport vositalarini boshqarishga va tasarruf qilishga oid ishonchnomalarni, shuningdek avtomototransport vositalaridan tekin foydalanish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun:

mulkdorning xotiniga (eriga), uning va xotinining (erining) otaonasi, bolalari va ularning eriga yoki xotiniga, nabiralariga, buvilariga, buvalariga, aka-ukalari va opa-singillariga, jiyanlariga - BHMning 50 foizi;

boshqa shaxslarga - BHMning 2 baravari (ilgari BHMning 3 baravari).

Mazkur qonunning qabul qilinishi notarial jarayonlarni osonlashtirishga, turli noaniqlik, nizo va korrupsiya holatlarini bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Yiliga 100 milliarddan so‘mdan ortiq mablag‘ aholi ixtiyorida qolmoqda.

Muxtasarxon TO‘RAYEVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

Bilamizki, shartnoma turlari bir qancha hisoblansa-da, har bir shartnoma turi boshqasidan ayrim jihatlari bilan farqlanib turadi. Quyida oldi-sotdi shartnomasi hamda mahsulot yetkazib berish shartnomasining farqiga to‘xtalib o‘tamiz.

Oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to‘lash majburiyatini oladi. Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan avtomototransport vositalarining oldi-sotdi shartnomasi notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan hollar bundan mustasno. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 387-moddasi talabiga ko‘ra oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha har qanday ashyolar ushbu Kodeksning 82-moddasi qoidalariga rioya qilgan holda tovar bo‘lishi mumkin.

Shartnoma, agar qonunda boshqacha hol belgilangan bo‘lmasa yoki u tovarning xususiyatidan kelib chiqmasa, shartnomani tuzish paytida sotuvchida mavjud bo‘lgan tovarni, shuningdek kelajakda sotuvchi yaratadigan yoki oladigan tovarni olish-sotish haqida tuzilishi mumkin.Sotuvchi sotib oluvchiga oldi-sotdi shartnomasida nazarda tutilgan tovarni topshirishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 437-moddasiga ko‘ra, Mahsulot yetkazib berish shartnomasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs (sotuvchi) o‘z ishlab chiqaradigan yoxud sotib oladigan tovarlarni sotib oluvchiga tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun yoki shaxsiy, oilaviy maqsadlarda, ro‘zg‘orda va shunga o‘xshash boshqa maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun topshirish, sotib oluvchi esa tovarlarni qabul qilish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladi.

Mahsulot yetkazib berish shartnomasi bir yilga, bir yildan ortiq muddatga (uzoq muddatli shartnoma) yoki taraflar kelishuvida nazarda tutilgan boshqa muddatga tuzilishi mumkin.

Agar mahsulot yetkazib berish shartnomasida uning amal qilish muddati belgilanmagan bo‘lsa, shartnoma bir yilga tuzilgan deb hisoblanadi.

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI XUSUSIYATLARI

Hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikka keng imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Shuning bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o‘sib bormoqda. Tadbirkorlikka oid munosabatlarda shartnoma alohida ahamiyat kasb etadi.



Agar uzoq muddatli shartnomada yetkazib berilishi lozim bo‘lgan tovarlar miqdori yoki shartnomaning boshqa shartlari bir yilga yoki undan ortiq muddatga belgilangan bo‘lsa, shartnomada taraflarning bu shartlarni shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar keyingi davrlar uchun kelishib olish tartibi belgilanishi lozim. Shartnomada bunday tartib bo‘lmasa, shartnoma tegishincha bir yilga yoki shartnoma shartlari kelishilgan muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Uzoq muddatli shartnoma taraflaridan biri yetkazib berilishi lozim bo‘lgan tovarlar miqdorini yoki shartnomaning boshqa shartlarini keyingi davrlar uchun shartnomada belgilangan tartibda kelishib olishni rad qilgan yoki undan bosh tortgan taqdirda boshqa taraf tegishli davrlarda tovarlarni yetkazib berish shartlarini belgilash to‘g‘risidagi yoxud shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Sirojidin BATIROV,
Izboskan tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

ISHONCHNOMALARNI NOTARIAL TASDIQLASH MAJBURIYMI?

Bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchnoma shakllari quyidagilar: Avtomototransport vositasini boshqarishga ishonchnoma; ko‘chmas-mulkni sotish huquqi bilan ishonchnoma; meros rasmiylashtirish uchun ishonchnoma; pensiya va nafaqa olish uchun ishonchnoma; sudda qatnashish uchun ishonchnoma; pulni olish uchun ishonchnoma.

Quyidagi ishonchnomalar shaxs ishlaydigan yoki o‘qiydigan tashkilot, u yashaydigan uyga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot, mahalla yig‘ini yoxud kasalxona ma'muriyati tomonidan tasdiqlanishi mumkin: xat-xabarlarni, shu jumladan pul va posilkalarni; ish haqini hamda mehnat munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa to‘lovlarni; mualliflar va ixtirochilarga to‘lanadigan haqlarni; pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarni; bank muassasalaridan summalarni.

Ishonchnoma bir yoki bir nechta vakilga berilishi mumkin. Agar ishonchnoma bir nechta vakilga berilsa, ularning har biri ishonchnomada ko‘rsatilgan vakolatlarni birgalikda amalga oshirishi yoki alohida-alohida bajarishi haqida ishonchnomaning matnida ko‘rsatiladi.

Bunday holatda, notarius ishonchnoma bo‘yicha har bir vakilga berilgan vakolatlar doirasini aniqlaydi va bitimni tasdiqlaydi.

Agar ishonchnoma bo‘yicha vakillik qiluvchi yuridik shaxs bo‘lsa, ishonchnoma matnida yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli yoziladi.

Belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkor o‘zining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini boshqa shaxsga ishonchnoma berish orqali o‘tkazishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ishonchli vakil o‘ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi.

Ishonchnomani tuzish va tasdiqlash uchun ishonchli vakilning ishtiroki talab etilmaydi.

Notarius tomonidan ko‘chmas mulk vositasini tasarruf etish huquqi bilan ishonchnomani tasdiqlashda qonunchilik mazmuni tushuntiriladi.

Ishonchnomalar davlat tilida rasmiylashtiriladi. Ishonchnoma rus tilida yoki boshqa maqbul tilda berilishi mumkin.

Ishonchnomalar o‘sha tashkilot binosida tasdiqlanadi. Fuqaro kasalligi, nogironligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra tashkilot binosiga bora olmasa, u yashaydigan joyda to‘ldirilishi mumkin.

Notarius ko‘chmas mulk va avtomototransport vositasini tasarruf etish huquqi bilan ishonchnomani tasdiqlashda ishonchnoma matnida O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23 va 24-moddalari mazmuni tushuntirilganligi haqida ko‘rsatib o‘tishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar, xorijiy kompaniyalar hamda firmalar vakolatxonalariga hamda ularning xodimlariga, oila a'zolariga tegishli "CMD", "D", "UN", "T", "X", "M" seriyadagi davlat raqamlariga ega bo‘lgan avtomototransport vositalaridan foydalanish va (yoki) ularni tasarruf etish ishonchnomalarini notarial tasdiqlashda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining roziligini tasdiqlovchi hujjat talab qilinadi.

Ishonchnomalar ko‘pi bilan 3-yilgacha beriladi, muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa ishonchnoma 1 yil amal qiladi.

Sharibjon IBAYDULLAYEV,
Qo‘rg‘ontepa tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

Murojaat qiluvchilarning murojaatlari notarius yoki uning xodimlari tomonidan "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali Murojaatlarni navbatma-navbat qayd etish elektron ro‘yxatiga qayd qilinadi.

Elektron ro‘yxat har bir notarius tomonidan "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali alohida yuritiladi.

Davlat notarial idoralari notariuslarining ish kunlari va vaqti Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan belgilanadi.

Davlat notarial idoralari notariuslarining ish kunlari va vaqtini belgilashda muayyan davlat notarial idorasi yoki notarius tomonidan haftaning shanba va yakshanba kunlarida ham notarial harakatlar amalga oshirilishi nazarda tutiladi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarga bo‘ysunuvchi tuman (shahar) doirasida faqat bitta notarius faoliyat yuritadigan hollar bundan mustasno.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning ish kunlari va vaqti ularning o‘zlari tomonidan mustaqil belgilanadi. Bunda mazkur ma'lumotlar xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar tomonidan bir ish kuni davomida "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilishi shart.

Notarius yoki uning xodimi kelib tushgan har bir murojaatni navbat bo‘yicha elektron ro‘yxatga kiritadi, notariusning ish kuni va vaqtini hamda murojaat qiluvchi uchun qulay vaqtni inobatga olgan holda, notariusning qabul kuni va soatini belgilaydi hamda bu haqda murojaat qiluvchini xabardor qiladi. Bunda murojaat qiluvchi murojaat kelib tushgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan notarius tomonidan qabul qilinishi lozim.

Har bir murojaat ushbu yilda yuritiladigan elektron daftar bo‘yicha takrorlanmaydigan tartib raqamiga ega bo‘ladi.

Murojaat qiluvchining istagiga ko‘ra, uning murojaati elektron daftarga qayd etilganligi haqida muvofiq shaklda xabarnoma taqdim etiladi.

Murojaat qiluvchi belgilangan vaqtda notarius qabulida hozir bo‘lishi shart. Mazkur talab bajarilmaganda murojaat qiluvchini qabul qilish umumiy asoslarda yoki qabul vaqtini qaytadan belgilash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan vaqtdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Murojaat qiluvchi notarius tomonidan belgilangan vaqtda qabul qilinishi lozim.

Murojaat qiluvchi notarius tomonidan qabul qilinganda, muayyan kamchiliklar sababli tegishli notarial harakatlarni amalga oshirish imkoni yo‘qligi aniqlangan taqdirda, mazkur kamchiliklarni darhol bartaraf etish choralari ko‘riladi. Aniqlangan kamchiliklarni darhol bartaraf etish imkoni bo‘lmagan taqdirda, murojaat qiluvchiga ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun yetarli muddat beriladi. Bunda murojaat qiluvchi berilgan muddatdan keyin navbatdan tashqari qabul qilinadi va bu haqda elektron daftarga tegishli izoh kiritiladi.

Xusanboy KAXOROV,
Jalaquduq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

NOTARIAL IDORALARIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARINI NAVBATMA-NAVBAT QAYD ETISH TARTIBINI BILASIZMI?

Jismoniy va yuridik shaxslar notarial idoralarga bevosita kelib yoki telefon orqali, yozma yoxud elektron shaklda, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki "Ye-notarius.uz" axborot portali orqali o‘zlari uchun qulay va aniq vaqtda murojaat qilishga haqli.

ANDIJONLIKLAR MAQOM SAN'ATI JOZIBASIDAN BAHRAMAND BO‘LDI

Andijon shahridagi viloyat Qo‘g‘irchoq teatrida O‘zbek milliy maqom san'ati markazi Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli jamoasi o‘zining konsert dasturini namoyish etdi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi "Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori ijrosini ta'minlash hamda "Maqomni birga kuylaymiz" loyihasi doirasida tashkil etilgan konsert dasturi oldidan so‘z olganlar maqom san'atining hayotimizdagi o‘rni, roli va ahamiyati, uni aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish haqida gapirdi. Maqom xalqimizning o‘lmas san'at turlaridan biri ekanligi alohida ta'kidlandi.

O‘zbekiston hamda Qoraqalpog‘iston xalq artisti, professor Abduhoshim Ismoilov badiiy rahbarligida faoliyat olib borayotgan ansamblning Ozodjon Tillanazarov, To‘ra Muxtorov, Nafisa Farmonova, Mahfuza Davronova, Sunnatulla Yunusov, Ozodaxon Ermuhammadova, Ziyodjon Ruzimov, Odiljon Orziyev, Azamat Ergashev, Mansurbek Mo‘minov va boshqa xonanda hamda sozandalari tomonidan konsert dasturida mumtoz kuy va qo‘shiqlar mahorat bilan ijro etildi.

- Maqom xalqimizning qadim va o‘lmas san'at turlaridan biri, - deydi ansambl xonandasi, "Shuhrat" medali sohibi Ozodjon Tillanazarov. - Yurtdoshlarimizga ana shu san'at durdonalarini tuhfa etayotganligimizdan behad xursandmiz. Ayniqsa, jamoamizning Andijon gastroli juda mazmunli o‘tmoqda. Andijonliklarning maqom san'atiga qiziqishi yuqori ekanligi bizni yanada quvontirdi.

Konsert dasturida andijonlik san'at ixlosmandlari an'anaviy maqom kuy va qo‘shiqlarining nozik ohanglaridan bahramand bo‘ldi.

- Ochig‘i, anchadan buyon maqom qo‘shiqlarini jonli tarzda maza qilib eshitmagan edim, - deydi tadbir ishtirokchisi, mehnat faxriysi Umidaxon Egamberdiyeva. - Chiroyli, mazmunli konsert dasturi uchun "Maqom" ansambli jamoasiga, tashkilotchilarga minnatdorchilik bildiraman. Bu kabi konsertlar tez-tez o‘tkazilib turilishini istar edik.

Maqom san'ati jozibasi andijonlik san'at ixlosmandlariga xushnudlik va ko‘tarinki kayfiyat ulashdi.

F. UBAYDULLAYEV,
Z. UMRZOQOV (foto),
O‘zA muxbirlari.

MUTLAQ HUQUQ VA MULK O‘RTASIDAGI NISBAT

Mulk - moddiy va ma'naviy ne'matlarning muayyan kishilar egaligida bo‘lishi va ular tomonidan o‘zlashtirilishidir. Mulkka egalik huquqi hamda mulk obyektlariga egalik, ularni bo‘lish, taqsimlash bo‘yicha kishilar o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulk obyekti yer va yer osti boyliklari, korxona, bino, inshootlar, mashina va uskunalar, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog‘ozlar, san'at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlanmalar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni amalda o‘zlashtiruvchilar mulk subyektlari, ya'ni egalari hisoblanadi. Bularga ayrim kishilar, oilalar, jamoalar va davlat kiradi. Mulkdan amalda foydalanib, bundan naf ko‘rish mulkni iqtisodiy tasarruf qilish hisoblanadi.

Kishilarning moddiy ne'matlarni yaratishdagi, ularni taqsimlash va iste'mol etishdagi o‘rni, siyosiy hayotda tutgan mavqei, asosan, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishlariga bog‘liq. Jamiyat taraqqiyoti tarixida egalik qilish shakliga ko‘ra mulkning bir necha turi bor. Ana shulardan biri mutlaq huquqdir. Mutlaq huquq - intellektual mulk obyektiga nisbatan uning egasiga tegishli bo‘lgan mulkiy huquqlar majmui. Mutlaq huquq egasi intellektual mulk obyektidan o‘z xohishiga ko‘ra har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanishga haqli. Ushbu obyektdan boshqa shaxslarning foydalanishiga huquq egasining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. Mutlaq huquq egasi bu huquqni boshqa shaxsga to‘liq yoki qisman o‘tkazishga, intellektual mulk obyektidan boshqa shaxsning foydalanishiga ruxsat berishga va qonun doirasida uni boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli. Mutlaq huquq sanoat mulki obyektlari, seleksiya yutuqlari bo‘yicha patent orqali tovar belgilariga, xizmat ko‘rsatish belgilari bo‘yicha guvohnoma orqali, firma nomiga nisbatan dalolatnoma orqali rasmiylashtiriladi. Mualliflik va turdosh huquq obyektlari, kompyuter dasturlariga nisbatan esa mutlaq huquqlar muallifga (ish beruvchiga yoxud buyurtmachiga) asar yaratilishi fakti asosida tegishli bo‘ladi. Mutlaq huquqlarning amal qilish muddati qonunlarda belgilab qo‘yiladi. Mutlaq huquq universal vorislik yoki shartnoma asosida boshqa shaxslarga o‘tkazilishi mumkin. Mutlaq huquq bilan bog‘liq masalalar Fuqarolik kodeksining 1034-1040 moddalarida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o‘sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo‘lishiga ruxsat beriladi. Mulkchilikning hamma shakllari daxlsiz bo‘lishiga va ularning rivojlanishi uchun teng sharoit yaratilishiga qonun kafolat beradi.

Lochinbek MIRZAOLIMOV,
Xo‘jaobod tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

O‘zbekiston Respublikasining "Notariat to‘g‘risida"gi qonunning 52-moddasiga muvofiq meros ochilgan joydagi notarius, basharti qonun bo‘yicha meros-xo‘rlarning yoki vasiyat majburiyati yuzasidan huquq oluvchilarning, kreditorlar yoki davlatning manfaatlari uchun zarur bo‘lsa, jismoniy va yuridik shaxslarning xabariga ko‘ra yoki o‘z tashabbusi bilan meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘rilishi belgilangan.

Agar qonun bo‘yicha meros-xo‘rlar bo‘lmasa yoki noma'lum bo‘lsa, mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi merosni boshqaruvchi tayinlanishini so‘-rab notariusga murojaat etishi lozim.

Agar meros qoldiruvchining mol-mulki yoki uning bir qismi meros ochilgan joydan tashqarida bo‘lsa, meros ochilgan joydagi notarius bu haqda meros mol-mulk joylashgan yerdagi notariusga meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘rish to‘g‘risida topshiriq yuboradi.

Meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘rgan notarius meros ochilgan joydagi davlat notarial idorasiga ko‘rilgan chora-tadbirlar haqida xabar qiladi va meros mol-mulk ro‘yxatining nusxasini yuboradi.

Meros mulkni muhofaza qilish, avvalo, meros ochilgan joydagi notarius zimmasiga yuklanadi. Chet davlatlarda bo‘lgan meros mulkni muhofaza qilish O‘zbekiston Respublikasi Konsullik muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Meros qoldiruvchi bilan birgalikda yashab kelayotgan merosxo‘rlar yoki boshqa shaxslar o‘z xohishlari bilan ro‘yxatga olish uchun mol-mulkni taqdim etgan taqdirdagina, notarius ushbu mol-mulkni ro‘yxatga oladi.

Agar meros qoldiruvchi bilan birgalikda yashab kelayotgan merosxo‘rlar yoki boshqa shaxslar mol-mulkni ro‘yxatga olishga qarshilik qilishsa, notarius mol-mulkni xatlash uchun taqdim etishdan bosh tortganlik to‘g‘risida dalolatnomani tuzadi va merosxo‘r-larni bu haqda xabardor qiladi, ularga bu masala yuzasidan da'vo bilan sudga murojaat etish yoki da'voni ta'minlash maqsadida sud tartibida mol-mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish huquqlarini tushuntiradi.

Shuningdek, ro‘yxatga olish uchun joyiga chiqilganda, ro‘yxat-ga olinishi lozim bo‘lgan mol-mulk mavjud bo‘lmasa va merosxo‘rlar yoki boshqa shaxslar tomonidan olib ketilgan bo‘lsa, notarius mol-mulk mavjud emasligi to‘g‘risida yoki mol-mulk olib ketilganligi to‘g‘risida dalolatnoma tuzadi va bu haqda merosxo‘rlarga yoki boshqa manfaatdor shaxslarga xabar beradi, ularning buzilgan huquqlarini himoya qilish va mol-mulkni qaytarish talabi bilan huquqni muhofaza qiluvchi organ-larga murojaat etish huquqini tu-shuntiradi.

Vafot etgan shaxsdan qolgan pul mablag‘lari notarial idoraning depozit hisob raqamiga topshi-riladi.

Qimmatbaho metallarga, chet el valyutasiga, qimmatli qog‘ozlarga, qimmatbaho metallardan, toshlar-dan ishlab chiqarilgan buyumlarga alohida ro‘yxat tuziladi, ular kon-vertga yoki yumshoq idishga so-linadi, muhrlanadi, plombalanadi va ro‘yxatga olingan kunning keyingi kunidan kechiktirmay, merosxo‘rlarga berilgunicha yoki meros olish huquqi bo‘yicha me-ros mol-mulki davlatga o‘tish ho-latida davlat foydasiga topshiril-gunga qadar, tegishli bangga saqlash uchun topshiriladi.

Hujjatsiz shakldagi qimmatli qog‘ozlar depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida tegishli depozitariylarda saqlanadi.

Eng kam ish haqining o‘n baravaridan kam bo‘lgan narxdagi qimmatbaho ashyolar (buyumlar) meros mol-mulk saqlash uchun topshirilgan shaxslarda qoldiriladi.

Marhumning mol-mulki tarki-bida bo‘lgan barcha turdagi qurol va portlovchi moddalar maxsus ro‘yxat bo‘yicha ichki ishlar organlariga topshiriladi.

Meros qoldiruvchiga tegishli bo‘lgan orden, medallar, faxriy un-vonlar, ko‘krak nishonlari, shu-ningdek ularni taqdirlash to‘g‘risi-dagi hujjatlar oila a'zolarida qoldi-riladi yoki merosxo‘rlarning roziligi bilan ular muzeylarga topshirilishi mumkin.

Agar mulkni boshqarish lozim bo‘ladigan mulk doirasidagi meros bo‘lgan taqdirda unga boshqa-ruvchi tayinlash bilan birga mulkni qo‘riqlash choralari ko‘riladi.

Rabixon NOSIROVA,
Buloqboshi tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

MEROS MULKINING QO‘RIQLANISHIGA DOIR QANDAY CHORA-TADBIRLAR KO‘RILADI?

O‘zbekistonda mulk huquqi daxlsizdir va davlat tomonidan himoya qilinadi. Shunday himoya usullaridan biri bu meros mulkining qo‘riqlanishidir. Meros mulkini qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘rishdan maqsad mulkni talon-toroj qilinishini oldini olishdan iborat.

KO‘CHMAS MULK OCHIQ SAVDODA SOTIB OLINGANLIGI HAQIDA GUVOHNOMA BERISH TARTIBI QANDAY?

Notarius ko‘chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida to‘g‘risida guvohnoma beradi. Guvohnoma qonunchilikda belgilangan muddatlarda beriladi. Notarius tomonidan bitim notarial idora binosida yoki murojaat qiluvchilarning talabiga ko‘ra sayyor tartibda rasmiylashtiriladi.

Bitim notarial idora binosidan tashqarida rasmiylashtirilgan taqdirda, hujjatning tasdiqlovchi yozuvida bitim rasmiylashtirilgan joyning manzili ko‘rsatiladi va bitimni rasmiylashtirish hamda imzolash jarayoni majburiy audio va videoga qayd etiladi.

Bitimni rasmiylashtirish ja-rayonini audio va videoda qayd etishda notarius va notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslar tasvirga to‘liq tushirilishi shart. Bunda notarius tomonidan qanday turdagi notarial harakat amalga oshirilayotganligi, notarial harakat mazmuni, ahamiyati notarius tomonidan ovoz chiqarib taraflarga tushun-tirib berilganligi hamda hujjat matni bilan taraflar to‘liq tanishganligi va ularning asl maqsadiga muvofiqligini tasdiqlagan holda imzolash hamda barmoq izlarini "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi-da skaner qilish jarayoni to‘liq audio va videoda qayd etilishi lo-zim.

"Notariat to‘g‘risida"gi O‘zbe-kiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo‘lsa, boshqa maqbul tilda beriladi.



Murojaat qiluvchi bitimni ras-miylashtirish uchun notarial ido-raga o‘zi kelib murojaat qiladi yoki notarius xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud "E-notarius.uz" axborot portali orqali ro‘yxatdan o‘tadi.

Notarius tizim orqali kelib tush-gan elektron murojaatlarni ko‘rib chiqishi va belgilangan muddatda murojaat qilgan shaxslarni qabul qilishi shart.

Murojaat qiluvchi elektron tarmoq orqali notarius qabuliga navbatga yozilishni, shuningdek bitim rasmiylashtirilishi uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni jo‘nat-gan holda tegishli bitim loyiha-sining oldindan tayyorlab qo‘yili-shini so‘rab murojaat qilishi mumkin.

Murojaat qiluvchining elektron tarmoq orqali notarius qabuliga yozilish bo‘yicha yo‘llangan mu-rojaatlari jismoniy va yuridik shaxs-larning murojaatlarini navbatma-navbat qayd qilish elektron ro‘y-xatiga avtomatik tarzda qayd qilinadi.

Murojaat qiluvchining elektron tarmoq orqali bitim rasmiylash-tirilishi uchun zarur bo‘lgan ma'lu-motlarni oldindan jo‘natgan holda, tegishli hujjatlarning tayyorlab qo‘yilishi bo‘yicha yo‘llangan mu-rojaatlari ularning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Murojaat bo‘yicha bitim loyihasi notarius tomonidan belgilangan vaqtda oldin-dan tayyorlab qo‘yiladi.

Murojaat qiluvchi no-tarial idoraga bevosita o‘zi kelganda uni notarius yordamchisi qabul qiladi, notarius yordamchisi mav-jud bo‘lmaganda kotib yoki notarius stajyori, ular ham bo‘lmaganda notarius qabul qiladi va uning maqsadiga aniqlik kiritadi.

Notarius bitimni rasmiylashti-rishni so‘rab murojaat qiluvchilar-ning (ularning qonuniy vakillari-ning, shuningdek vasiy va homiy-larining) va yuridik shaxs vakillarining shaxsini aniqlaydi.

Sirojiddin IMINOV,
Qo‘rg‘ontepa tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

RO‘ZADA TO‘G‘RI OVQATLANISH MUHIM



Ramazon oyida ro‘za tutishlik nafaqat ruhiy poklanish balki, inson salomatligi uchun xam katta ahamiyatga ega. Yil davomida organizm muntazam ovqat qabul qilib charchagan va shu bir oy davomida "dam oladi". Buning oqibatida tanada yangidan tozalanish jarayoni kuzatiladi.

Ramazon oyidagi to‘g‘ri ovqatlanish oddiy kundagi ovqatlanishimizdan farq qilmasligi kerak. Yoki judayam oddiy ko‘rinishda bo‘lishi lozim. Chunki ro‘zaning mohiyatida inson ochlikni his qilib, unga sabr qilishi yotadi.

Saharlik qilish kunning birinchi yarmigacha ishlash va ibodat uchun yetarli energiya manbai hisoblanadi. Kunning ikkinchi yarmida esa organizm tanadagi uglevod va yog‘larning bir qismi parchalanishi hisobiga kuch oladi.

Shifokorlar tavsiyasiga ko‘ra saharda murakkab uglevodlar - qora non, don mahsulotlari, sabzavotlar, oqsil - yog‘siz mol-qo‘y go‘shti, parranda go‘shti, baliq, tuxum va sut mahsulotlarini muvozanat mutanosibligida iste'mol qilish kerak.

Murakkab uglevodlar va oqsil organizmda uzoq hazm bo‘lish hisobiga tanani bir muncha to‘q tutadi. 8-12 soat davomida energiya manbai hisoblanadi.

Shuni yodda saqlash muhimki haddan ortiq ko‘p yeyish ham organizm uchun zarardir!

Saharlikka kofe tavsiya etilmaydi. Ko‘k choy damlamasidan bo‘lgan shirchoy ayni muddao.

Iftorda mumkin emas: tez tayyor bo‘luvchi ovqatlardan saqlangan ma'qul.

Bular: Rolton, Big Bon va shunga o‘xshash mahsulotlar, kolbasa va kolbasa mahsulotlari. Yog‘lik hamda qovurilgan ovqatlar.

Iftorlik dasturxoni nafaqat xilma-xil, balki vitaminga boy bo‘lishi kerak.

Iftorlikda tavsiya etiladi: suvni shoshmasdan ho‘plab ichish, mevalar, xurmo iste'mol qilish organizm uchun eng foydali.

Bir oz tanaffus (shom namozi) hamda oqsilga boy mahsulotlar: go‘sht, baliq va tuxum, sabzavotlardan tayyorlanadigan yengil hazm bo‘ladigan salatlar yoki suyuq ovqatlar. Muhimi, yengil to‘yish hissi bilan dasturxondan turish kerak. Iftor vaqtidan toki uxlaguncha 2 litrgacha suv, tabiiy tayyorlangan sok yoki shakarsiz kompot, ko‘k choy ichish tavsiya etiladi.

Shirinlik xush ko‘ruvchilar uchun kam miqdorda yoki shirinlik o‘rnini meva bilan almashtirsa bo‘ladi.

Inson o‘z tanasining, nafsining quli emas. Shunday ekan iftorlikka tayyorgarlik ko‘rayotgan vaqtdan boshlab o‘zi uchun nimalar yeyishini aniq belgilab olmog‘i kerak. Iftorlikni "ishtaha" bilan emas, balki foydali tarafini anglagan holda qilish kerak. Aks holatda hazm qilish jarayoni buziladi va bundan organizm aziyat chekadi.

Oyshaxon TO‘YCHIYEVA,
kardiolog.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, Деҳқонобод МФЙ, Болтабоев кўчаси, 7-уйда яшаб 2021 йил 27 июль куни вафот этган марҳум **САМАТОВ БАХТИЯР ХАКИМЖАНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Қизил Юлдуз кўчаси, 9/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.Х.Сиддиқов нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб 2023 йил 25 октябрь куни вафот этган марҳума **ПУЛАТОВА ШАРАПАТХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Фурқат кўчаси, 4-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.А.Шербаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб 2010 йил 12 сентябрь куни вафот этган марҳума **КАХОРОВА ОЙХОН РАДЖАБОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Истиқлол шоҳкўчаси, 6-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус О.А.Гафуров нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб, 2024 йил 5 сентябрь куни вафот этган марҳума **LUGINA TATYANA VIKTOROVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Милий кўчаси, 27-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Т.У.Арзикулов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Бунёдкор МФЙ, Фузулий 5 кўча, 6 уйда яшаб, 2015 йил 21 октябрь куни вафот этган марҳум **YUSUPOV SHAVRONBEK AXMATBEKOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2024 йил 10 апрель куни вафот этган марҳум **BEGMATOV EGAMBERDI KADIROVICH,**

Андижон туманида яшаб, 2020 йил 21 ноябрь куни вафот этган марҳум **МИРЗАЕВ КАХХОР АХМАТОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани Нўхатак МФЙ Матбуотчи кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.И.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 21 июль куни вафот этган марҳум **XURBAYEV ABDURAXIM ABDURAIMOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2005 йил 14 май куни вафот этган марҳум **АБДУРАХИМОВ ҒАНИЖОН МУЛЛАДЖОНОВИЧ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2006 йил 13 март куни вафот этган марҳума **КАРИМОВА МАХАББАТ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2001 йил 22 декабрь куни вафот этган марҳум **КАРИМОВ ТУРУМ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1992 йил 12 март куни вафот этган марҳума **АШИРБЕКОВА ГУЛСИН АШИРОВНА**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Дукчи Эшон МФЙ, Роҳатбахш кўчасидаги уйда яшаб, 2020 йил 29 октябрь куни вафот этган марҳума **КАРШИЕВА АНОРХОН,**

Марҳамат тумани, Ўзбекистон МФЙ, Оқибатли кўчаси, 11 уй, 13 хонадонда яшаб, 2016 йил 12 январь куни вафот этган марҳума **ХУДОЙҚУЛОВА МАВЛЮДА АБДУЛЛАЕВНА,**

Марҳамат тумани, Марказий МФЙ, Бобур кўчасидаги уйда яшаб, 2021 йил 20 ноябрь куни вафот этган марҳума **ИСАКОВА ОДИНАХОН МИРЗАЖОНОВНА**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумаларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобуршоҳ кўчаси, 38 уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2004 йил 2 декабрь куни вафот этган марҳум **ҚУЧҚАРОВ ПУЛАТБОЙ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2022 йил 10 ноябрь куни вафот этган марҳум **РЕЖАПОВ АДАХАМЖОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, З.Хабибий МФЙда яшаб, 2024 йил 13 сентябрь куни вафот этган марҳума **YARMATOVA ODINA ALEKSANDROVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.-Тўйчиboев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Бувайдо МФЙда яшаб, 2024 йил 15 августда вафот этган марҳум **ЙЎЛДОШЕВ ҚОСИМ ХОШИМОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

БИЛДИРУВЛАР

”SAMO-RS” иштирокчиларининг 04.03.2025 йилдаги умумий йиғилиш қарорига асосан ”SAMO-RS” МЧЖ ихтиёрий равишда тугатилмоқда.

”SAMO-RS” МЧЖ бўйича мурожаатларни қабул қилиш жойи ва муддати:

Андижон шаҳар, Бобур шохкўчаси, 7Б-уй, 4-хонадонда 2025 йил 4 мартдан 4 апрелгача. Телефон: +99891 607-56-31

”SAMO-RS” МЧЖ дирекцияси.

• •

Андижон вилоят Ички ишлар бошқармаси томонидан 2024 йил 2 октябрь куни **ЮСУПОВ ОТАБЕК АДХАМОВИЧ** номига берилган 6668-рақамли пенсия гувоҳномаси йўқолганлиги маълум қилинади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo’limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 7.03.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 7.03.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000132. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li